

**TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI****Ergashev R. X.***QarMII professori, i.f.d.***Akchurina A. M.***Qarshi Davlat Universiteti magistranti***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**

Turizm, innovatsion tizim, innovatsion strategiya, turistik xizmatlar bozori, innovatsiyalar, globallashuv, dunyo, innovatsiya faktor.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlanirish faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tahliliga bag'ishlangan.

---

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** O'zining buyuk tarixiy, arxeologik, me'moriy va tabiiy xazinalari bilan O'zbekiston sayyohlik uchun alohida imkoniyatlarga ega. Mamlakatning turli xil ekologiyasi, cho'llardan-muzlikgacha, tog'lardan-dashtgacha, mamlakatga katta ekologik turizm salohiyatini beradi. XXI asr: Innovatsion texnologiyalar asrida yashayotgan ekanmiz mamlakatimiz turizm salohiyati qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay, unda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etgan holda ish yuritsakkina barqaror raqobatbardishlikka erishishimiz mumkin.

Turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlanirish faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnalogik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, ishslashning yangi uslublarini yaratishga va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti deb tan olingan. Turizmda turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlanirishni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag'batlantiradi. Ularadan foydalanish mumkinligi, shuningdek, iste'molchilik talablari va iste'molchilar istaklari, zamonaviy kishi ruhiyatining o'zgarishlari sababli, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib o'zgarishi bilan ham bog'liqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Bugungi kunga kelib innovatsiya atamasi barcha sohalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi zarur element sifatida qaralmoqda. Turizmda va u bilan bog'liq turli sohalarda ya'ni transport, joylashtirish, ovqatlanishda innovatsiyalardan foydalanish bu tarmoqning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirda har bir soha uchun yangiliklarni joriy etish, uni takomillashtirib borish raqobatbardoshlikni oshiradi va bozorda yashab qolishning asosiy shartlaridan biri sifatida tan olingan.

Turizmning innovatsion rivojlanish aspektlari ko‘plab iqtisodchi olimlar A.V.Novikov, D.S.Bikasov, V.S.Novikovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan [1,2,3]. O‘zbekiston Respublikasida turizmni innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari N.T.Tuxliyev, M.K.Pardayev, B.X.To‘rayev, B.SH.Safarov, M.T.Alimova, A.A.Eshtayev va R.X.Ergashevlarining ilmiy asarlarida tahlil qilingan [4,5,6,7,8,9,10,11].

Turizm bozori rivojlanishining innovatsion komponentlarini o‘rganishda turli darajadagi ta’sir etuvchi omillar va boshqa xil innovatsion ishlanmalarni aniqlash masalasi hozirgacha yetarlicha o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida turizmda xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirish tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, turli xalqaro va nodavlat tashkilotlar uslubiyotini qiyosiy tahlil etish, rasmlar usullaridan foydalanildi.

Hozirda turizm sohasi uchun asosiy maqsad XX asr davomida doimiy bo‘lgan va XXI asr boshlarida dunyoda davom etayotgan yirik global yangiliklarni aniqlash, tushunish va ulardan turizmni innovatsion rivojlantirish maqsadida foydalanishdan iboratdir.

**Tahlil va natijalar.** Turizm xizmat bozori turistik xizmatlarning xaridori ( talabni taqdim etuvchilar) va sotuvchilarni ( mahsuot bilan ta’minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraladi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o‘laroq, turistik xizmat bozori tovarning sotuvchidan xaridorga ko‘chishini emas, balki xaridorlar turistlarning taqdim etilayotgan xizmatlarni, ya’ni turmahsuotni xarid qilish uchun belgilangan manzilga qarab harakat qilishini anglatadi.

Turizmdagi innovatsiyalar – bu tizimli tadbirlar bo‘lib, sifatlari yangiliklarga ega va butun tarmoqda ijobjiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bunday innovatsiyalarni tatbiq etishdan olinadigan samara bu mamlakatga sayyoqlik oqimining ortishi va foydaning o‘sishida ko‘rinadi. Demak, iqtisodiyotda turizmning rolini oshirishga qaratilgan barcha tavsiyalar, yo’nalishlar va qarashlarni O‘zbekiston turizmini rivojlantirish uchun ham tadbiq etish mumkin. Ya’ni global innovatsiyalarni O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda qo’llash birinchi navbatda uning raqobatbardoshligini oshiradi, turistlar sonning oshishiga erishiladi, bu esa o‘z navbatida daromadning oshishini ta’minlaydi, bundan tashqari turizm infratuzilmasi rivojlanib, turizmning jamiyatdagi rolini oshishiga erishiladi.

Mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirish uchun iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni qo’llashda ko‘plab imkoniyatlarga ega. Negaki, Global Innovatsion Indeksning 2020–yilgi ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi innovatsion iqtisodiyoti 131 mamlakat orasidan 93-o‘rinni egallagan.

Turizm xizmatlar bozorini tahlil qilar ekanmiz, biz tadqiqotimiz obyektini turizm bozorining eng muhim segmentidagi, ya’ni turistik firmalar faoliyatidagi munosabatlar bilan chegaraladik. Ma’lumki, turistik firmalar sayohatlar tashkilotchisi va turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi sifatida turizm industriyasidagi bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimining asosiy halqasini tashkil etadi. Shuni ham aytib o’tish lozimki, o‘zining g‘oyat muhim va dolzarbligiga qaramasdan, turizm industriyasidagi bozor munosabatlarining aynan shu sohasi hozirgi paytgacha batafsil yoritilmasdan qolmoqda.

Turizm xizmat bozori turistik xizmatlarning xaridori ( talabni taqdim etuvchilar) va sotuvchilarni ( mahsuot bilan ta’minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraladi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o‘laroq, turistik xizmat bozori tovarning sotuvchidan xaridorga ko‘chishini emas, balki xaridorlar turistlarning taqdim etilayotgan xizmatlarni, ya’ni turmahsuotni xarid qilish uchun belgilangan manzilga qarab harakat qilishini anglatadi.

O‘zbekistondagi turizm sohasidagi xizmatlar bozori iqtisodiyoti islohotlari va xususiyashtirish jarayonlari zaminida 90-yillarning birinchi yarmida shakllana boshladi. Shu paytgacha bozorning mazkur segmenti doirasida olib boriladigan faoliyat davlat tomonidan qattiq nazorat qilinar, davlat barcha xizmatlarning asosiy ta’mintchisi edi. Mustaqillikka erishilgandan keyin turistik xizmatlar bozorida uzluksiz rivojlanish jarayoni kuzatilmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy

islohotlar nafaqat turizm sohasi rivojlanishining jadallahishiga, balki mamlakatimizning jahon hamjamiyatida alohida, munosib o'rni bo'lganligi sababli, oldin imkonni bo'lmasan yangi turistik xizmat turlarining ham yaratilishiga zamin hozirlamoqda.

Hozirgi paytga qadar O'zbekistonning siyosi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida turizm xizmat bozorining tutgan o'rni to'la e'tirof etilmagan. Biroq, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda aynan ichki turizm xizmat bozoriga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda. Buning ma'lum sabablari mavjud bo'lib, ehtimol, aynan turizmning shu sohasi keajakda mamlakatimiz iqtisodiyotining tez sur'atlarda o'sishini ta'minlay oladigan soha bo'lishi mumkin.

Turizm xizmat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun iste'molchilarning turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlariga asoslangan holda turmahsulotni ishlab chiqish va uni sotishni tashkillashtirish, xalqaro huquq normalari va qoidalari, turizm menejmenti va marketing sohalaridagi faoliyat tajribalari hamda bozor konyunkturasini hisobga olish talab qilinadi. Shularni hisobga olib, O'zbekistonda yaqin kelajakda turistik xizmatlar bozorining shakllanish va rivojlanishini ta'minashga xizmat qiladigan quyidagi zamonaviy tendensiyalar aniqlandi:

- turistlar tashrif buyuradigan destinatsiyalarning turistik (tabiiy, madaniy va tarixiy) resurslari holatini hisobga oladigan turistik xizmat va bozorlari faoliyatini rivojlantirish hamda yangilarini yaratish;
- turistik faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirishga mahalliy jamoatchilik va hokimiyat organlarini jalg qilish hamda uning xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy aholi farovonligining oshishi, soliq, bojxona xizmati bilan bogliq turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan boshqa qiyinchiliklarni yengib o'tish;
- asosiy e'tiborni turizm sohasidagi xizmatlar narxini sayyoohlар uchun ma'qul va turizm industriyasini uchun foyda keltiradigan darajada saqlab qolishga qaratish;
- mablag'larni investitsiya qilishda atrof-muhit himoyasi masalalarini (qurilish, arxitektura, antropogen holatlarni) hisobga olish;
- turizm xizmat bozorida marketingni amalga oshirish va xizmatlarni yuritish uchun katta miqdorda mablag'lar ajratish, muayyan guruhlarga kiruvchi turistlarni izlash va ular uchun taklif qilinayotgan xizmatlarning maqsadli bo'lishini ta'minlash;
- turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy malakasini oshirish.

Hozirgi paytda turizm sohasiga kadrlarni tayyorlash muammosini hal qilish, transport tizimini modernizatsiya qilish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitning ifloslanishini bartaraf etish kabilarga bozorning imkoniyatlari to'liq yetmaydi. Turistik xizmat bozori tarkibiga, o'z navbatida, turistik mahsulotning talab va taklifini belgilovchi bozor munosabatlarning shakllanishiga asos bo'lgan ko'plab omillar ta'sir qiladi. Bular qatoriga, shu jumladan, turistik xizmat bozorini davlat tomonidan boshqarish mexanizmi ham kiradi. Bunday mintaqaviy turistik xizmat bozori shakllanishining asosiy shartlari 1-rasmda aks ettirilgan.

<i><b>Turistik xizmat bozori shakllanishining asosiy shartlari</b></i>	
<i><b>Turistik mahsulotlarga talab</b></i>	<i><b>Turistik mahsulot taklifi</b></i>
<i><b>Turistik xizmat bozor tarkibi</b></i>	
1. turistik mahsulot differensiatsiyasi	
2. turistik bozorga kirishdagi to'siqlar	
3. xarajatlar tarkibi	
4. turistik korxonalar integratsiyasining darajasi	
5. turistik korxonalar faoliyatining diversifikatsiyasi	
<i><b>Turistik xizmat bozori</b></i>	<i><b>Turistik xizmat bozorini davlat</b></i>

	<i>tomonidan boshqarish mexanizmi</i>
- narx strategiyasi; - nomenklatura strategiyasi; - innovatsion faoliyat; - turistik korxonalar rivojlanishini moliyalashtirish; - turistik faoliyatning huquqiy asosi.	- soliq siyosati; - narx siyosati; - kreditlash siyosati; - raqobat muhitini yaratish; - axborot ta'minoti; - ilmiy-texnik siyosat.
<i>Turistik xizmat bozori faoliyatining natijaviyligi</i>	
- budgetni to'ldirish va tursesurslardan oqilona foydalanish; - yangi ish o'rinalarini yaratish; - aholini turistik xizmatlar bilan to'la qoniqtirish; - destinatsiyalarr infratuzilmasini rivojlantirish; - aholi turmush darajasining o'sishini ta'minlash.	

### **1-rasm. Turistik xizmat bozori samaradorligini belgilovchi shartlar**

Butun sayyohlik sohasida global innovatsion tendensiyalarni joylashtirish beshta asosiy yo'nalishda o'z ifodasini topadi:

- turizmnинг rivojlanib borishi;
- ilmiy-uslubiy va amaliy xarakterdagи masalalarga yangi yechimlarni qo'llash;
- turizmnинг jamiyatdagи o'rnini kuchayishi;
- sayyohlik sanoatida sinergik ta'sirning mavjudligi;
- turizmnинг innovatsion rivojlanishini rag'batlantiruvchi ichki va tashqi omillarning roli o'zgarishi.

Iqtisodiy o'sishning asosi sifatida innovatsiya davlatlar, shuningdek rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologiyalar va nostandard nomoddiy aktivlar orqali raqobatlashishga intilishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarning keng qo'llanilishi aholi turmush darajasining o'sishi va takomillashishining asosiy omiliga aylanib bormoqda.

Yurtimizda iqtisodiy rivojlanishning innovatsion uslubiga o'tish bo'yicha faol qadamlar qo'yilmoqda. Milliy innovatsion tizimni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ✓ qulay iqtisodiy va huquqiy muhitni yaratish (qulay investitsiya muhitini yaratish);
- ✓ innovatsion infratuzilmalarni qurish;
- ✓ tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish va eksperimental rivojlanish natijalarini tijoratlashtirish.

Mamlakatimizda turizmga bo'lgan e'tiborning yildan-yilga oshayotganligi va uning Davlat Siyosati darajasiga ko'tarilganligi bu soha rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Turizm bozoridagi asosiy innovatsion faoliyatni qo'yidagilardan iborat:

- reklama kompaniyalarini amalga oshirish (OAV orqali);
- yangicha xizmat turlarini yaratish orqali iste'molchilarni jalb qilish va bu haqidagi ma'lumotlarni sayyohlarga yetkazish;
- kompaniya haqida obzorlar tizimini shakllantirish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish, shu jumladan ma'lumotlarni qidirish va yetkazib berishning qulay vositalarini, veb-saytlarni, mobil ilovalarni va boshqalarni ishlab chiqish va yaratish;

- yangi sayyohlik obyektlarini qurish;
- Rivojlanayotganlar ishlarini o‘rganish va ularning tajribalaridan foydalangan holda innovatsion ishlanmalarni joriy qilish va sohaga tadbiq qilish.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi bildirilgan fikr va g‘oyalar yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Turizm xizmat bozorining mohiyati va tarkibini aniqlashda innovatsion sharoitdagi turistik xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish maqsadga muvofiq bo‘ldi. Turistik xizmatlarning an’anaviy moddiy material ko‘rinishda bo‘lmasligi, bevosita sezilmasligi, iste’molchining bevosita servis jarayonida ishtirok etishi, ishlab chiqarish va iste’mol qilish amallarining ajralmasligi kabi belgilar bu turdagи xizmatlarni to‘laligicha ifodalaydi. Turistik xizmatlarning xususiyatlarini tadqiq qilishning yangi innovatsion imkoniyatlarini izlash ularning jamiyatga foya keltirishi ko‘lamini belgilash va tashqi ta’siri konsepsiyasini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘ladi.

“Milliy turistik xizmatlar bozori” har bir alohida hududni xizmatlar bilan ta’minlaydigan bozor bo‘lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hosilasi ko‘rinishiga ega hamda turizm industriyasi milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli, o‘sha bozorni takomillashtirish unga turdosh tarmoqlarni rivojlantirish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Turizm sohasida innovatsion jarayonlarni qo‘llash nafaqat bir soha uchun balki, butun iqtisodiy tizim uchun samarali hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish orqali:

- ✓ xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun investitsiya loyihamonlari jalb qilish imkoniyati namoyon bo‘ladi;
- ✓ kadrlarni malakasini oshirish yoki ularni qayta tayyorlashda jahon standardlariga mos tizimlardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi;
- ✓ sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda samaradorligi yuqori bo‘lgan tizimlardan foydalanish mumkin bo‘ladi;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Новиков А.В.Развитие туристско-рекреационных зон в условиях государственно-частного партнерства: монография / Казань: Изд-во КНИТУ, 2012. – 216 с.
2. Быкасов Д.С. Туристско-рекреационные особые экономические зоны,— путь, развития регионального туризма //Вестник РАГС. — 2007. - № 13. В.С. Новиков. Инновации в туризме. Учебное пособие – М.: Туризм, 2010. - 203 с;
3. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 424 с.
4. Pardayev M.K., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2006. -137 b.
5. To‘rayev B.X. Organizatsionno-ekonomicheskiye mexanizmi regionalnogo turizma. -T.:«Fan», 2009. – 154 s.; 7.Safarov B.SH. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. - 184 b.;
6. Alimova M.T. Hududiy turizm bozoriningrivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Monografiya. Iqtisodiyot, - Toshkent, 2015. – 300 b.
7. Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. – T.: “Fan”, 2011. – 280 b.
8. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova The importance of innovative activity in tourism European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2

---

No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562

9. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Mohigul Khamidova The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562.
10. Rakhmatulla Xidirovich Ergashev. Prospects for Ecological Tourism Development in Uzbekistan. <https://academicjournal.io> Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development Published in Aug-2021,495-503